

SUN’IY INTELLEKT AXLOQINING SHAKLLANISHI: GLOBAL TAMOYILLAR VA BAHSLAR

Sodatova Lola Musurmonovna,

*Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi
saodatovalola@gmail.com*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada sun’iy intellekt axloqining shakllanish jarayoni, uning global tamoyillari va asosiy bahsli jihatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Inson huquqlari, adolat, shaffoflik va javobgarlik kabi prinsiplarning SI tizimlariga tatbiqi yoritiladi. Shuningdek, turli mamlakatlar yondashuvlari va axloqiy muammolar yechimiga doir konseptual qarashlar tahlil etiladi, zamonaviy tendensiyalar ham baholanadi.*

***Kalit so‘zlar:** sun’iy intellekt, axloq, global tamoyillar, etik me’yorlar, shaffoflik, javobgarlik, inson huquqlari, algoritmik adolat, raqamli jamiyat, texnologik taraqqiyot.*

***Аннотация.** В данной статье анализируется процесс формирования этики искусственного интеллекта, его глобальные принципы и основные спорные аспекты с социально-философской точки зрения. Особое внимание уделяется применению таких принципов, как права человека, справедливость, прозрачность и подотчетность, к системам искусственного интеллекта. Также анализируются подходы разных стран и концептуальные взгляды на решение этических проблем, оцениваются современные тенденции.*

***Ключевые слова:** искусственный интеллект, этика, глобальные принципы, этические стандарты, прозрачность, подотчетность, права человека, алгоритмическая справедливость, цифровое общество, технологический прогресс.*

***Abstract.** This article analyzes the process of formation of the ethics of artificial intelligence, its global principles and main controversial aspects from a socio-philosophical perspective. The application of such principles as human rights, justice, transparency and accountability to SI systems is highlighted. Also, the approaches of different countries and conceptual views on the solution of ethical problems are analyzed, and modern trends are evaluated.*

***Keywords:** artificial intelligence, ethics, global principles, ethical standards, transparency, accountability, human rights, algorithmic justice, digital society, technological progress.*

Kirish. Sun’iy intellekt fenomeni XXI asrning eng muhim texnologik va ijtimoiy-falsafiy muammolaridan biri sifatida jahon ilmiy doiralarida keng muhokama qilinmoqda. Zero, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida hech bir texnologik yutuq ijtimoiy ong va jamiyat taraqqiyotiga bu darajada kuchli ta’sir ko’rsatmagan. Sun’iy intellekt dastlab amaliy texnik masalalarni hal etishga xizmat qiluvchi hisoblash algoritmlari sifatida yuzaga kelgan bo’lsa-da, “bugungi kunda u inson faoliyatining deyarli barcha jabhalariga kirib bormoqda: iqtisodiyot, siyosat, ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniyat, hatto ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi ham bundan mustasno emas”[1]. Aynan shu holat ijtimoiy falsafa uchun sun’iy intellekt fenomenini alohida tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda, chunki texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda insoniyatning qadriyatlar tizimi, axloqiy mezonlari ham qayta ko’rib chiqilishini talab qilmoqda.

Sun’iy intellekt axloqi masalasini falsafiy nuqtai nazardan o’rganishda, eng avvalo, “jamiyat – texnologiya – axloq” dialektikasiga e’tibor qaratish lozim. Chunki u oddiy

texnologik jarayon emas, balki ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlarning qayta shakllanishiga sabab bo‘layotgan murakkab jarayondir. Masalan, insoniyat tarixida bosma mashina ixtiro qilinganda bilim va axborotning tarqalishi tubdan o‘zgargan bo‘lsa, bugungi kunda “sun‘iy intellekt inson faoliyati va ongini virtual va algoritmik shaklda qayta ishlab, yangi falsafiy savollarni yuzaga chiqarmoqda”[2]. Shu nuqtai nazardan, sun‘iy intellekt axloqi nafaqat texnologiyadan foydalanish qoidalarini, balki insonning kelajakdagi mavjudligi, jamiyatning o‘zini anglash jarayonini ham belgilovchi konseptual tushunchaga aylanmoqda.

Bu texnologiya taraqqiyotining eng asosiy falsafiy xususiyati shundaki, u inson va texnologiya o‘rtasidagi chegaralarni tobora yo‘qotmoqda. Klassik falsafada inson ongining noyobligi va erkinligi ta’kidlangan bo‘lsa, sun‘iy intellekt davrida bu tamoyil shubha ostiga qo‘yilmoqda. Chunki “algoritm ham inson fikriga o‘xshash tarzda qaror qabul qilish, tahlil qilish, hatto ijodiy natijalar yaratish imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda”[3]. Natijada “antroposentrizm” tushunchasi qayta ko‘rib chiqilmoqda va bu jarayon ijtimoiy falsafa uchun alohida dolzarb mavzuga aylanmoqda.

Axloqiy nuqtai nazardan qaraganda, sun‘iy intellekt jarayonlari bir necha muhim savollarni tug‘diradi: kim bunday texnologiya tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun javobgar? Agar sun‘iy intellekt algoritm ham inson axloqiga ta’sir etsa, mas’uliyat kimning zimmasiga tushadi? Texnologiya neytralmi yoki u jamiyatdagi mavjud tengsizliklarni yanada kuchaytiradimi? Global axloqiy tamoyillar va milliy ma’naviyatga, qadriyatlarga qanday ta’sir etadi, ular o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlab bera oladimi? Ushbu savollar chuqur “ijtimoiy-falsafiy, axloqiy, aksiologik muhokamalarni ham keltirib chiqarmoqda”[4].

Bundan tashqari, sun‘iy intellekt axloqi global miqyosdagi muammolar bilan ham chambarchas bog‘liq. Masalan, “rivojlangan davlatlarda bunday texnologiyalar tez sur‘atlarda joriy etilayotgan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu jarayon kechroq bo‘lmoqda, natijada “raqamli tafovut” kengaymoqda”[5]. Bu esa ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan adolat va tenglik muammosini yanada keskinlashtiradi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, u nafaqat jamiyatning tashqi tuzilishini, balki insonning ichki dunyosini ham o‘zgartirmoqda. Masalan, algoritm asosidagi ijtimoiy tarmoqlar insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va hatto psixologik holatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Bu jarayon falsafiy jihatdan “insonning erkin tanlovi” masalasini qayta tahlil qilish zaruratini tug‘diradi. Chunki inson endi ongli ravishda tanlov qilayotgan emas, balki “ushbu texnologiya algoritm tomonidan taklif etilayotgan variantlar ichida qaror qabul qilayotgan subyekt sifatida namoyon bo‘lmoqda”[6]. Fikrimizcha, sun‘iy intellekt axloqi masalasini ijtimoiy falsafiy kontekstda o‘rganishning eng asosiy sababi shundaki, biz bugungi kunda texnologiyalarni nazorat qilayotgan emas, balki ularning ta’sir doirasida ongimiz va

qadriyatlarimiz qayta shakllanayotgan davrda yashayapmiz. Agar axloqiy me’yorlar va qadriyatlar tizimi inson tomonidan yaratilgan sun’iy intellekt taraqqiyotiga hamnafas tarzda rivojlanmasa, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik jiddiy xavf ostida qolishi xavfi mavjud.

Shuningdek, bugungi kunda falsafiy adabiyotlarda sun’iy intellekt fenomeniga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud, bular texnologik determinizm va ijtimoiy konstruktivizm. Birinchisiga ko‘ra, u “mustaqil tarzda ijtimoiy jarayonlarni belgilab beradi, ya’ni jamiyat uning ortidan ergashishga majbur”[7]. Ikkinchisiga ko‘ra, u insoniyat tomonidan yaratilgan vosita bo‘lib, u “jamiyatdagi mavjud qadriyatlar, siyosiy tuzum va iqtisodiy manfaatlardan tashqariga chiqa olmaydi”[8]. Ushbu qarama-qarshi yondashuvlar uning axloqi muammosini yanada chuqurlashtiradi, chunki texnologiya va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir masalasi ochiq qolmoqda.

Shu bois, sun’iy intellekt axloqi masalasini o‘rganishda “inson – texnologiya – jamiyat” uchligini yaxlit holda ko‘rib chiqishimiz lozim. Inson faqat texnologiyadan foydalanuvchi emas, balki uning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy oqibatlarini ham o‘z zimmasiga oluvchi subyektdir. Texnologiya esa insonni o‘zgartiruvchi, jamiyatni qayta shakllantiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Muxtasar qilib aytganda, sun’iy intellekt axloqi masalasi bugungi kunda ijtimoiy falsafaning markaziy muammolaridan biriga aylangan. Chunki u nafaqat texnologik taraqqiyotning oqibatlarini, balki jamiyatning kelajakdagi qiyofasini ham belgilab beruvchi konseptual soha sifatida qaralmoqda. Bu masalaning mohiyatini ochishda insoniyat oldida turgan eng asosiy vazifa bu sun’iy intellektning axloqi global tamoyillarini ishlab chiqish va ularni jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotiga uyg‘unlashtirishdan iboratdir.

Muhokama va natijalar. Sun’iy intellekt axloqi shakllanishida global omillar hal qiluvchi rol o‘ynamoqda, chunki texnologiya insoniyat hayotining barcha jabhalariga kirib borgani sari uning oqibatlari faqat bitta milliy hudud yoki siyosiy tizim bilan chegaralanib qolmaydi. Bu intellekt global miqyosda iqtisodiy raqobat, siyosiy barqarorlik, madaniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarga birdek ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli uning axloqi masalasini ijtimoiyfalsafiy nuqtai nazardan o‘rganishda global omillarni tahlil qilish birinchi darajali vazifadir.

Eng avvalo aytish kerakki, gumanizm va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabat uning axloqi shakllanishida tayanch nuqtadir. Gumanistik qadriyatlar inson hayoti, qadr-qimmatini va erkinligini eng oliy darajada e’tirof etadi. Texnologiya esa, xususan sun’iy intellekt, ushbu qadriyatlarga mos kelishi yoki ularga ziddiyat tug‘dirishi xavfi mavjud. Masalan, tibbiyotda bunday algoritmlarining qo‘llanilishi inson hayotini saqlab qolish imkoniyatlarini kengaytirsa-da, boshqa tomondan, u tomonidan qabul qilingan qarorlar insondagi erkin tanlovni cheklab qo‘yadi. Bu yerda asosiy savol shundaki,

texnologiya insoniylikni mustahkamlovchi vositaga aylanishi kerakmi yoki insoniyatning o‘zini texnologiyaga moslashtirish jarayoniga ko‘proq urg‘u beriladimi?


Gumanizm va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasi, bizning fikrimizcha, sun‘iy intellekt axloqi shakllanishining eng muhim falsafiy tayanch nuqtasidir. Chunki gumanistik qadriyatlar inson hayoti, qadr-qimmatini va erkinligi kabilar tarix davomida jamiyatni birlashtirib kelgan va uni rivojlanish sari yo‘naltirgan asosiy tamoyillardir. Sun‘iy intellekt esa, bir tomondan, ana shu qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlashi va mustahkamlashi mumkin, ikkinchi tomondan esa, ularga qarshi ziddiyatli oqibatlarni yuzaga keltirishi ehtimoli bor. Misol tariqasida tibbiyotdagi amaliyotlarni olaylik: sun‘iy intellekt algoritmlari hayotni saqlab qolish imkoniyatlarini kengaytiradi, kasalliklarni erta aniqlash va davolashda samaradorlikni oshiradi. Ammo ayni paytda, bunday algoritmlarning qarorlari insonning shaxsiy tanlovini chegaralashi, individual qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirishi xavfi bor. Bu nuqtada asosiy savol tug‘iladi: texnologiya insoniylikni mustahkamlovchi vositaga aylanishi kerakmi yoki insoniyat texnologiyaga moslashish jarayoniga ko‘proq urg‘u berishi kerakmi? Bizningcha, bu savolga javobni topishda bir nechta falsafiy oqimlarning qarashlarini inobatga olish lozim. Avvalo, transgumanizm nazariyasi texnologiyani insonning tabiiy chegaralarini kengaytiruvchi vosita sifatida ko‘radi.

Transgumanistlarga ko‘ra, inson texnologiya yordamida yanada mukammal bo‘lishi, kasalliklardan xalos bo‘lishi va hatto biologik cheklavlarni yengib o‘tishi mumkin. Bu yondashuvning ijobiy tomoni texnologiyaning inson salohiyatini oshirishga xizmat qilishi, biroq uning salbiy jihati shundaki, u ko‘pincha inson erkinligini emas, balki insonni texnologiyaga moslashtirish jarayonini kuchaytiradi. Shu o‘rinda postgumanizm qarashlarini ham e‘tiborga olish zarur. Postgumanizmga ko‘ra, inson borliqni markazidaligi (antroposentrizm) ta‘limoti o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda, texnologiya esa odamzod bilan teng huquqli mavjudot sifatida qaralmoqda. Menimcha, bunday yondashuv xavfli, chunki u insonni texnologiyaga bo‘ysundirish va insoniylikni yo‘qotish xavfini kuchaytiradi.

Xulosa. Insoniyatning o‘zini mashina bilan tenglashtirishi gumanistik qadriyatlarga zid bo‘lib, axloqiy chegaralarni buzadi. Bunga qarshi ravishda, ijtimoiy konstruktivizm sun‘iy intellekt rivojlanishini insoniyatning ijtimoiy tuzilmalari va qadriyatlari belgilab berishini ta‘kidlaydi. Bu yondashuv biz uchun eng maqbul ko‘rinadi, chunki u texnologiyani insoniyat qadriyatlariga moslashtirish zarurligini ilgari suradi. Demak, texnologiyaning o‘zi insoniylikni yo‘qotuvchi xavf emas, balki uni qanday qo‘llashimiz, ya‘ni axloqiy va falsafiy tamoyillar asosida boshqarishimiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Floridi L. The Ethics of Artificial Intelligence. – Oxford University Press, 2020. – 256 p.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. – Wiley-Blackwell, 2010. – 597 p.
3. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. – Oxford University Press, 2014. – 390 p.
4. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Prentice Hall, 2021. – 1152 p.
5. Danaher J. Automation and Utopia: Human Flourishing in a World without Work. – Harvard University Press, 2019. – 317 p.
6. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism. – Profile Books, 2019. – 691 p.
7. Winner L. Autonomous Technology. – MIT Press, 1977. – 386 p.
8. Feenberg A. Transforming Technology. – Oxford University Press, 2002. – 246 p.



UNIVERSITY
OF BUSINESS
AND SCIENCE